

KOMPAINIYALARNING BIZNES JARAYONLARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Qobilov Alisher

TDIU “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” fakulteti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedraasi PhD, Dotsent

Bekberganov Asadbek Umarbek o‘g‘li

Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va

tizimlari 2- bosqich magistranti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O‘zbekiston

Annotatsiya.

Ushbu maqolada kompaniyalarning biznes jarayonlarini samarali boshqarish va raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida kompaniyalar jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlar bilan samarali muloqot qilish va raqobatdoshligini oshirish imkoniga ega bo‘ladilar. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan yangiliklar va texnologik yondashuvlar muhim o‘rinni egallaydi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar asosida davlat ko'magining ahamiyati ham ko'rsatilgan. Kompaniyalar uchun raqamli texnologiyalarni tadbiq etish va ularning samaradorlikka ta'siri tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar.

raqamli texnologiyalar, biznes jarayonlari, avtomatlashtirish, mijozlar bilan muloqot, raqobatdoshlik

ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БИЗНЕС-ПРОЦЕССАХ КОМПАНИЙ

Кобиров Алишер

Факультет «Цифровая экономика и информационные технологии» ТГЭУ

Кафедра «Цифровая экономика», PhD, доцент

Бекбергенов Асадебек Умарбек угли

Магистрант 2-го курса, факультет магистратуры

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация.

В данной статье анализируются способы повышения эффективности управления бизнес-процессами компаний с помощью цифровых технологий. Использование цифровых технологий позволяет компаниям автоматизировать процессы, эффективно взаимодействовать с клиентами и повышать свою конкурентоспособность. Внедрение инноваций и технологических подходов играет важную роль в этой области. Кроме того, в статье подчеркивается важность государственной поддержки, оказываемой в рамках указов Президента Республики Узбекистан по развитию цифровой экономики. Исследуется применение цифровых технологий и их влияние на эффективность компаний.

Ключевые слова.

Цифровые технологии, бизнес-процессы, автоматизация, взаимодействие с клиентами, конкурентоспособность

**APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE
BUSINESS PROCESSES OF COMPANIES**

Kobilov Alisher

Faculty of "Digital Economy and Information Technologies,"

Tashkent State University of Economics

Department of "Digital Economy" PhD, Associate Professor

Bekberganov Asadbek Umarbek o'g'li

2nd-year Master's student, Faculty of Master's Studies

Tashkent State University of Economics

Uzbekistan

Abstract.

This article analyzes ways to improve the management of companies' business processes through the application of digital technologies. By employing digital tools, companies can automate processes, effectively interact with customers, and increase their competitiveness. Innovations and technological

approaches are essential in this domain. Additionally, the article highlights the significance of state support as outlined in the resolutions issued by the President of Uzbekistan on digital economy development. The application of digital technologies and their impact on companies' efficiency are examined.

Keywords.

digital technologies, business processes, automation, customer interaction, competitiveness.

Kirish

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda kompaniyalar uchun muhim o'rinni egallab, ularning jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari orqali kompaniyalarga raqamli texnologiyalarni qo'llash, ular yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish va modernizatsiya qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Jumladan, "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi" (PQ-6079) doirasida, raqamlashtirishni rivojlantirishga keng yo'l ochilib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshirish masalalari ko'tarilgan. Bu esa kompaniyalarga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali xizmat ko'rsatish tezligini oshirish, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, mamlakatda biznes sohasida yangi texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish ham nazarda tutilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va ular yordamida yangi strategiyalar ishlab chiqish orqali kompaniyalar innovatsion rivojlanishga hissa qo'shmoqdalar.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli texnologiyalarni kompaniyalarning biznes jarayonlariga qo'llash masalasi ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar bu

texnologiyalarning samaradorlik va raqobatdoshlikni oshirishdagi ahamiyatini qayd etadi. Kompaniyalarning biznes jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamli transformatsiya hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Tadqiqotlarda asosan jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, korxona resurslarini integratsiyalash va sun'iy intellektdan foydalanish masalalari o'rganilgan. T. Davenport (2018) o'zining "Artificial Intelligence in Business" nomli asarida sun'iy intellekt integratsiyasi jarayonlarni optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi va aniqligini oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Muallif real kompaniyalar misolida AI asosidagi raqamlashtirish operatsion xarajatlarni 20–25% gacha kamaytirishini ilmiy asosda ko'rsatadi (Davenport, 2018, pp. 54–63). Bu xulosalar biznes jarayonlarida algoritmik boshqaruvning muhimligini tasdiqlaydi. Ayrim mahalliy tadqiqotchilar fikricha, raqamli transformatsiya orqali samaradorlikka erishish bu – resurslarni boshqarishni raqamlashtirish, yangi innovatsiyalarni joriy etish va kompaniyalar boshqaruvini zamonga mos o'zgartirish demakdir. Islomjon Nurmukhammadovning (2023) O'zbekiston sharoitida sanoat korxonalarida ERP tizimlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy maqolasida, raqamli tizimlarning ishlab chiqarish, logistika va buxgalteriya jarayonlaridagi samaradorlik darajasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ERP tizimlarini joriy etgan korxonalarda resurslarni boshqarish aniqligi oshgan, mahsulot tannarxi kamaygan va moliyaviy nazorat kuchaygan (Nurmukhammadov, 2023, pp. 5–7). Bu ma'lumotlar raqamli transformatsiya O'zbekiston korxonalarida ham amaliy natija berayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodlari

Dunyo miqyosida kompaniyalar biznes jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini o'rganish uchun, ushbu sohada olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda ilmiy abstraktsiyalash, tahlil (analitik) metod, mantiqiy fikrlash,

korelatsion va regressiya tahlil usullari va ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullari orqali texnologiyalarning turli biznes jarayonlariga ta'siri ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar

Raqamli texnologiyalarni joriy etish kompaniyalarga biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda kompaniyalar zamonaviy dasturiy ta'minot va uskunalardan yordamida xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va resurslardan samarali foydalanish kabi maqsadlarga erishmoqda. Ushbu jarayonlarda texnologiyalar yirik ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi, bu esa kompaniyalarga real vaqt rejimida qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Zamonaviy texnologiyalarni biznes jarayonlariga joriy etish korxonalar uchun bir qator ustunliklarni yaratadi. Misol uchun, ERP tizimlari korxonaning moliyaviy, logistika, ishlab chiqarish, sotib olish va kadrlar bo'limlarida barcha jarayonlarni yagona platforma orqali boshqarish imkonini beradi. Nurmukhammadov (2023) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlari sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini 15–20 foizga oshiradi, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va real vaqt rejimida monitoring imkoniyatini yaratadi. Avvalambor, bu jarayonlarning inson omiliga bog'liq xatoliklardan holi bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, moliyaviy va kadrlar boshqaruvi sohasida kompaniyalar avtomatlashtirilgan tizimlar orqali noto'g'ri hisob-kitoblardan saqlanishi mumkin. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasida avtomatlashtirishning joriy qilinishi mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi va sifati yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya butun dunyo bo'ylab kompaniyalar biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda asosiy omilga aylanmoqda. McKinsey kompaniyasining so'nggi tahliliga ko'ra, dunyodagi yirik kompaniyalarning 89

foizi raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish jarayonida bo'lib, ular bu orqali kutilgan daromadlarning faqat 31 foizini va xarajatlarni kamaytirish bo'yicha 25 foizni amalga oshirayotganini aniqlagan. Bu raqamlar raqamli o'zgarishlardan to'liq foyda olish uchun strategik muvofiqlik va doimiy takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.¹

Deloitte kompaniyasining 2023-yilgi hisobotida esa, raqamli strategiyani samarali amalga oshirish Fortune 500 kompaniyalari uchun qo'shimcha 1,25 trillion AQSh dollari miqdorida bozor kapitallashuvi yaratish imkoniyatini beradi, deb taxmin qilinadi. Biroq, bunday qiymat faqat raqamli strategiyalarni aniq biznes maqsadlari bilan uyg'unlashtirilganda erishilishi mumkin, aks holda, bu noto'g'ri yondashuv kompaniya qiymatining sezilarli darajada kamayishiga olib kelishi mumkin.² Gartner kompaniyasi tahliliga ko'ra, kompaniyalarning taxminan 56 foizi o'rtacha yoki yuqori darajadagi raqamli yetuklikka ega bo'lib, bu ularning raqamli texnologiyalarni asosiy jarayonlarga muvaffaqiyatli integratsiya qilganligini ko'rsatadi. Raqamli yetakchilar esa bozor talablariga tezroq moslashish va daromadlarni oshirishda sezilarli ustunlikka ega. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, raqamlashtirish zamonaviy biznes muhiti uchun majburiy talab bo'lib, nafaqat samaradorlikni oshirish, balki xarajatlarni qisqartirish va mijozlarga yanada sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Umuman olganda, kompaniyalarning biznes jarayonlariga raqamli texnologiyalarni qo'llashi zamonaviy bozor muhitida muvaffaqiyatga erishishning zaruriy shartiga aylanmoqda. Shu sababli, kompaniyalar raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish va yangi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga e'tibor qaratishlari kerak.

Xulosa

Raqamli texnologiyalarni kompaniyalarning biznes jarayonlariga tatbiq etish zamonaviy biznes muhitida muvaffaqiyatga erishishning muhim omiliga

¹ <https://www.mckinsey.com/featured-insights/themes/how-top-performing-companies-approach-digital-transformation>

² <https://www.deloitte.com/global/en/about/press-room/new-deloitte-report-finds-digital-transformation.html>

aylanmoqda. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlar bilan samarali muloqot qilish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishda kompaniyalarga katta yordam beradi. ERP kabi tizimlar moliyaviy va kadrlar boshqaruvi kabi operatsiyalarni markazlashtirish orqali operatsion samaradorlikni oshiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi. McKinsey va Deloitte kabi nufuzli tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi kompaniyalar uchun qo'shimcha daromad manbalarini yaratishi va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Biroq, bu jarayonning samaradorligi raqamlashtirish strategiyalarini aniq biznes maqsadlari bilan moslashtirishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qarorlari mamlakat kompaniyalariga raqamli transformatsiya yo'nalishida muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun keng yo'l ochib beradi.

Umuman olganda, kompaniyalar raqamli texnologiyalarni keng miqyosda qo'llash orqali tezkor qaror qabul qilish, xizmat sifatini oshirish va bozor o'zgarishlariga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va bu borada yangi innovatsion yondashuvlarni tadbiq etish kompaniyalar uchun muvaffaqiyatning asosiy shartiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuchkarov.T. – Professor, Tashkent State University of Economics - <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/issue/view/12>
2. Cambridge University Press - Business Model Innovation A Blueprint for Strategic Change , 2022 y. pp. 80 – 110.
3. Tomas Haffenden - "Digital Transformation: How to Organize Your Enterprise for the Digital Era", 2023 y.

4. Ruben Sigala - "The Alignment Effect: How to Get Real Business Value Out of Technology"; 2023 y.
5. Manel Koumas, Paul-Eric Dossou, Jean-Yves Didie - Digital Transformation of Small and Medium Sized Enterprises Production Manufacturing. 2023 y. - <https://www.scirp.org/journal/paperinformation?paperid=113938>;
6. Кулагин.Б., Мефферт.Ю. Digital@Scale: Handbook on Business Digitalization / Vladimir Kulagin, Alexander Sukharevsky, Jurgen Meffert. Moscow: Intellectual Literature, 2019. — 293 с.ISBN 978-5-6042320- 7-1;
7. Electronic journal "Digital Economy and Information Technologies" - Issue No. 1, 2024 [13];
8. <https://fxssi.com/>
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>